

INSON SHAXSIY HUQUQ ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH SOHASIDAGI AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI.

Ro'zmetov Zokirjon Komiljon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-bosqich 316-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola fuqarolarni shaxsiy huquq erkinliklarini ta'minlash ularni huquqbuzarliklardan jabrlanish xavfini kamaytirish, shuningdek, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hizmat qiladi.

Abstract: This article aims to provide citizens with personal rights and freedoms, reduce their risk of being victimized by violations, and also to improve their legal consciousness and legal culture.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarlik, profilaktika, huquqiy ong, ekstremizm, kiberjinoyatchilik, ommaviy axborot vositalari

Key words: Crime, prevention, legal awareness, extremism, cybercrime, mass media

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Konstitutsiyada xalqaro huquq normalarining ustuvorligi belgilandi va uning asaosiy g'oyalaridan biri sifatida inson huquq va erkinliklarini tan olish, kafolatlash hamda ta'minlash to'g'risidagi qoidalar mustahkamlandi. O'zbekiston Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari davlat va jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yildi hamda inson huquqlariga oid barcha asosiy xalqaro standartlarning talablarini o'zida mujassam etdi.

O'zbekistonda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risida konvensiya, Ayollarni kamsitishga barham berish to'g'risida konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi.

Hozirgi kunda respublikamizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning yangi demokratik tizimi shakillantirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha milliy markazi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman va boshqa jamoat birlashmalari tashkil etilmoqda. Bundan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi, Migratsiya bo'yicha Xalqaro Tashkilot, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlari bilan keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan.



Ma'lumki, jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq erkinliklarini har qanday tajovuzlardan, xususan jinoiy tajovuzlardan, huquqbuzarliklardan himoya qilish huquqni muhofaza qilish organlari tizimiga kiruvchi markaziy subektlardan biri hisoblangan ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda ichki ishlar idoralari jamiyatda insonning konstitutsiyaviy shaxsiy huquqlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilishda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan keng hamkorlik olib bormoqda. Lekin shunga qaramay, bugungi kunda ichki ishlar idoralari tizimida inson huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni yanada takomillashtirish eng dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, inson huquq va erkinliklariga qaratilgan har qanday jinoiy tajovuzlarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan profilaktik ishlar bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi va bu sohada o'z yechimini kutayotgan qator muammolar ham mavjud.

Kuzatishlar va ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi vaqtlarda insonlarning shaxsiy huquq va erkinliklariga nisbatan sodir etilayotgan jinoiy tajovuzlar, birinchidan, ularning bilmasdan shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilishi orqali kiber jinoyatchilik qurboni bo'lib qolishi, ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda turli taqiqlangan saytlar orqali diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, uchinchidan, respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi yoki O'zbekiston Respublikasiga kelishi va undan chiqib ketishi, to'rtinchidan, vijdon erkinligi huquqlarini amalga oshirishi jarayonlari bilan bog'liq holda sodir etilmoqda.

Fuqarolarning mazkur shaxsiy huquq va erkinliklariga nisbatan sodir etilayotgan jinoiy hatti-harakatlarning ko'payib borishini taqozo etuvchi asosiy omillar sifatida jamiyatda ishsizlik muammosini hal etilmaganligi, migratsiya jarayonlarini yetarli darajada tartibga solinmaganligi hamda aholining muayyan qismi o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun yetarli huquqiy bilimga, ongga va madaniyatga ega emasliklarini ko'rsatishimiz mumkin. Jamiyat rivojlanishining muayyan bir bosqichida vujudga kelgan bunday omillardan ayrim toifadagi shaxslar, jinoiy guruhlar va hatto uyushgan jinoiy tuzilmalar o'zlarining g'araz maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishga harakat qilmoqda.

Shuning uchun ham bugungi kunda ichki ishlar idoralarining huquqbuzarliklarni oldini olish hizmatlari tomonidan fuqarolarning mazkur huquqlarini himoya qilish va ularni amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatish orqali jinoiy hatti-harakatlarni oldini olish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu sohadagi muammolarni hal etish va



fuqarolarning shaxsiy huquq hamda erkinliklarini har qanday tajovuzlardan himoya qilishda quyidagi profilaktik tadbirlar doimiy amalga oshirilishi lozimdir:

a) fuqarolarning yashash, ishlash, ta'lim olish joylarida o'z shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish qoidalari va tartibi bo'yicha keng ko'lamda tushuntirish, tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;

b) ommaviy axborot vositalarida amaldagi qonunlarga zid ravishda, maxsus ruxsatnomalari bo'lmagan shaxslar, firmalar orqali chet elga ish axtarib ketgan, turli g'arazli kimsalarga aldanib qolgan shaxslarning ayanchli taqdirlari hamda uning oqibatlarini haqidagi materiallarni muntazam ravishda berib borishni tashkil qilish;

c) fuqarolarni shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslikga chaqirish aks holda kiber jinoyatchilik qurboni bo'lib qolishlari mumkinligi haqida ogohlantirish va shu mazmundagi materiallarni tarqatish;

d) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, inson huquq va erkinliklarini himoya etuvchi jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda turli jinoiy tajovuzlar qurboni bo'lgan shaxslarga o'zlarining huquq va erkinliklarini tiklash bo'yicha huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish va h.k.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, birinchidan, har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini amaldagi qoida va tartiblarga asoslangan holda amalga oshirishga harakat qilsa; ikkinchidan, barcha manfaatdor davlat organlari hamda jamoat tuzilmalari targ'ibot, tashviqot, tushuntirish orqali bu sohada fuqarolarga huquqiy va amaliy yordam ko'rsatsagina ularning shaxsiy huquq va erkinliklari buzilishining oldini olishda samarali natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) Odilqoriyev X.T., Tul'tev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi. –T., 2009.
- 3) Zaripov Z., Ismoilov I. Kriminologiya. –T., 1996.
- 4) Ma'muriy huquq. Darslik.
- 5) Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish. O'quv qo'llanma.

